

O'RTA OSIYO XALQLARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

*I.M. Xaydarov – Toshkent davlat sharqshunoslik
Universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori(DSc).*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

*Rahmatova Bahora– Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari
tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

E-mail: baxora369@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada XIX asr o‘rtalarida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklariga qarshi olib borgan bosqinchilik siyosati, uning kelib chiqish sabablari va amalga oshirilish bosqichlari tahlil qilinadi. Maqolada dunyoning yetakchi kapitalistik davlatlari o‘rtasidagi yangi yerlar, xomashyo manbalari va bozorlar uchun kurash Rossiya imperiyasini ham ekspansionistik siyosat yuritishga undagani yoritiladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoda harbiy qal’alar va istehkomlar qurish, josuslik faoliyatini kuchaytirish hamda mahalliy xonliklarning siyosiy parokandaligidan foydalanish orqali bosqinchilik yurishlariga puxta tayyorgarlik ko‘rgani ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, shartnomalar, mustamlakachilik, milliy ozodlik harakati, tovonlar, xalq harakatlari, noroziliklar, o‘lkani bosib olinishi, shaharlar egallanishi, qo‘shin tarkibi, janr taktikasi, majburiyatlar, Toshkent egallanishi, xonliklar tugatilishi, general gubernatorlik, Fon Kaufman.

Abstract. This article analyzes the colonial policy of the Russian Empire against the Central Asian khanates in the mid-19th century, as well as its causes and stages of implementation. It highlights that the competition among the leading capitalist countries of the world for new territories, raw material sources, and markets also encouraged the Russian Empire to pursue an expansionist policy. It also shows that the Russian Empire carefully prepared for its military campaigns by constructing military forts and fortifications in Central Asia, intensifying intelligence activities, and taking advantage of the political fragmentation of local khanates.

Keywords: Emirate of Bukhara, Khiva Khanate, Kokand Khanate, Russian Empire, treaties, colonialism, national liberation movement, indemnities, popular movements, protests, conquest of the region, capture of cities, army composition, military tactics, obligations, capture of Tashkent, abolition of the khanates, Governor-Generalship, Konstantin von Kaufman.

Аннотация. В данной статье анализируется колониальная политика Российской империи против среднеазиатских ханств в середине XIX века, а также её причины и этапы реализации. Подчёркивается, что борьба ведущих капиталистических государств мира за новые территории, источники сырья и рынки сбыта также побудила Российскую империю к проведению экспансионистской политики. Также показано, что Российская империя тщательно готовилась к военным походам, создавая военные крепости и укрепления в Средней Азии, усиливая разведывательную деятельность и используя политическую раздробленность местных ханств.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кокандское ханство, Российская империя, договоры, колониализм, национально-освободительное движение, контрибуции, народные движения, протесты, завоевание края, захват городов, состав войск, военная тактика, обязательства, взятие Ташкента, ликвидация ханств, генерал-губернаторство, Константин фон Кауфман.

Kirish. XIX asr o'rtalarida dunyoda kapitalistik davlatlar o'rtasida yangi yerlarni egallash, xomashyo manbalarini qo'lga kiritish va tayyor mahsulotlar uchun bozorlarni kengaytirish jarayoni kuchaydi. Ana shunday sharoitda Rossiya imperiyasi ham o'zining mustamlakachilik siyosatini faollashtirib, yangi hududlarni bosib olishga kirishdi. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida O'rta Osiyo xonliklari tanlandi. O'sha davrda Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklarida siyosiy parokandalik, ichki nizolar va o'zaro kelishmovchiliklar kuchaygan edi. Rossiya imperiyasi aynan shu zaifliklardan ustalik bilan foydalangan holda mintaqaga bosqichma-bosqich kirib bordi. Avvaliga harbiy qal'alar va istehkomlar qurish, keyinchalik esa muntazam bosqinlar va harbiy yurishlar orqali xonlik hududlarini o'z ta'siriga oldi. Rossiyaning bu hududlarga qiziqishi faqat siyosiy yoki harbiy emas, balki iqtisodiy maqsadlar bilan ham chambarchas bog'liq edi. Yangi savdo bozorlari va xomashyo bazalariga bo'lgan ehtiyoj imperiyani O'rta Osiyoga yanada agressiv siyosat yuritishga undadi. Shu bilan birga, Rossiya va Angliya o'rtasidagi xalqaro raqobat ham bu bosqinchilik jarayonini tezlashtiruvchi muhim omillardan biri bo'ldi. Mazkur jarayonlar natijasida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish uchun uzoq yillar davomida puxta harbiy va siyosiy tayyorgarlik olib bordi. Ushbu mavzuni o'rganish Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati mohiyatini, uning bosqichlarini hamda O'rta Osiyo tarixidagi oqibatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda bir qator mahalliy va xorijiy ilmiy manbalardan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy hamda ma'naviy hayotini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo,

Sh. Qo'ldashevning "A'lam pochchaning Xitoydagi elchilik faoliyati" nomli maqolasida diplomatik aloqalar va elchilik faoliyati orqali O'rta Osiyo xalqlarining tashqi siyosiy munosabatlari yoritilgan. Ushbu manba Rossiya imperiyasi bosqinidan oldingi davrda mintaqaning xalqaro aloqalari va siyosiy faolligi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Bu esa o'z navbatida Rossiya imperiyasining hududga kirib kelishidan oldingi geopolitik vaziyatni tushunishda ahamiyatlidir. Kim Xodongning "Holy War in China" asari esa Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda diniy va siyosiy harakatlarning o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Muallif asarida diniy omillarning siyosiy jarayonlarga ta'siri, shuningdek, mustamlakachilikka qarshi kurashlarda mafkuraviy omillarning o'rni haqida fikr yuritadi. Ushbu asar orqali Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarini kengroq mintaqaviy kontekstda tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. A.Sh. Rajabovning Mirbobo Naqshbandiyga oid ilmiy ishlari esa asosan mintaqaning ma'naviy hayoti, tasavvufiy qarashlar va diniy tafakkur rivojiga bag'ishlangan. Xususan, "qalb zikri", "orif qalbi" va "qalbning tavsifi"ga oid tadqiqotlar orqali muallif O'rta Osiyo jamiyatining ichki ruhiy-ma'naviy dunyosini yoritadi. Bu esa Rossiya mustamlakachilik siyosatining nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ma'naviy hayotga ham ta'sir ko'rsatganini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shunday qilib, foydalanilgan adabiyotlar mazkur maqolada ko'rib chiqilgan masalalarni turli jihatdan - siyosiy, diplomatik va ma'naviy nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiladi. Ular asosida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish jarayonlari va uning oqibatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Natijalar. XIX asr o'rtalarida dunyoni yetakchi kapitalistik davlatlari yangi yerlar, xomashyo bazalari va o'z mollarini sotish uchun bozorlarni egallashga intilishi Rossiya imperiyasi ham yangi bosqinchilik yurishlarga undadi. Rossiya imperiyasini bosqinchilik siyosatining asosiy ob'ektlari O'rta Osiyo xonliklari bo'ldi. O'sha davrdagi O'rta Osiyo xonliklarini mintaqada yakka hukmronlikka intilishi, mavjud siyosiy parokandalikdan foydalanib, Rossiya imperiyasi tomonidan xonliklar hududi qisqa muddatda birin-ketinlik bilan bosib olindi. Shu bilan birga mustamlakaga aylantirish bilan bir qatorda xalqni ma'naviy hayotiga ham jiddiy putur yetkazdi. Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi O'rta Osiyodagi strategik rejalarini tahlil etish zarur. Bu bosqinga XIX asrning Birinchi yarmidayoq jiddiy kirishildi. Bosib olishga harakat Qo'qon Xonligi hududiga vaqti-vaqti bilan bostirib kirish, keng ko'lamda Josuslik ishlarini olib borish, Sirdaryoni quyi oqimlaridagi Raim (1847), G'arbiy Sibir tomondagi Kopal (1847), Oqmachit (1857), Olmaota Yaqinidagi Vemiy (1854) kabi strategik qulay mudofaa inshootlarini qurish bilan birga qo'shib

¹Qo'ldashev Sh. A'lam pochchaning Xitoydagi elchilik faoliyati. – Toshkent: Islom Universitetining "Ilmiy tahliliy axborot" jurnali, 2017-yil 3-son, –B. 46.

olib borildi². Bunday mudofaa inshootlari Rossiyaning Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga yanada chuqurroq kirib borishiga zamin yaratdi. Bosqinchilik yurishlarini avj olishi uchun xalqaro omil - Rossiya va Angliya o'rtasidagi keskin raqobat ham muhim ahamiyat kasb etdi. Rossiya imperiyasi Qo'shinlarini bosqinchilik harakatini tayyorgarlik bosqichi O'rta Osiyo Xonliklarini iqtisodiy ekspluatatsiya qilish bilan qo'shib olib borildi. Yangi savdo bozorlari va xomashyo bazasiga ehtiyoj sezayotgan Rossiya savdo sanoat doiralarini hukumatsiyosatni qo'llab -quvvatlayotganidan darak beradi. Rossiya hukumati Turkistonni boshqarishda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki tamoyilni muvofiqlashtirishga majbur bo'ldi. Yuqoridagi kabi missiyalar va ekspeditsiyalar, elchiliklar yordamida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldi. Xonliklar orasida birlikning yo'qligi, ular o'rtasida davom etib turgan qonli nizolardan foydalanib tezroq xonliklarni bosib olish rejasini ishlab chiqarib boshladi va ularni amalga oshirishni eng tajribali rus generallariga topshirdi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va uning bitmas tunganmas boyliglariga egalik qilishni bir asrlar avval o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar Pyotr I davridayoq boshlangan edi. Bir necha bor amalga oshirilgan elchilik va josuslik ma'lumotlariga tayangan holda Pyotr I O'rta Osiyoni qo'lga kiritish uchun dastlab qozoq juzlarini bo'ysundirish va ulardan keyinchalik vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Degan fikrni ilgari surgan edi. Turli yo'llar bilan qozoq yerlariga kirib kelgan ruslar birin ketin zab etilgan yerlarda harbiy qal'alar va istehkomlar ko'ra boshladi. 1717-yilda ko'rilgan Omsk, 1718 -yilda ko'rilgan Semipalatinsk, 1720-yilda ko'rilgan UstKamenogorsk, 1735 (1742 -?) yil ko'rilgan Orenburg qal'alari kabi mustahkam harbiy istehkomlar ruslarning bu yerdagi harbiy hukmronligi hali uzoq davom etishi va ular faqatgina qo'lga kiritgan yerlar bilan qanoatlanib qolmasliklarni bildirardi. 1731-1740-yillar davomida Kichik va Katta qozoq juzlarining Rossiya tobeligiga o'tish Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoning ichki hududlariga bostirib kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi hududlarni qo'lga kiritganlaridan so'ng, Rossiya davlati chegaralari bevosita o'zbek xonliklari chegaralari bilan tutashib qolgan edi. Biroq Rossiyaning Yevropada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va tashqi davlatlari bilan harbiy harakatlarning olib borilishi O'rta Osiyo xonliklariga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarini yana bir asr kechiktirishga majbur qildi. Bu davr mobaynida bosib olingan hududlarda erkparvar qozoq sultonlaridan biri Kenasari Qosimov ruslarga qarshi ozodlik kurashlari olib boradi. Bu qo'zg'olonlarni bostirish uchun minglab qurolli kuchlarga ega bo'lgan general Obruchev, polkovnik Lebedev, Dushikovskiy, podpolkovnik Gorskiylar hech qanday natijaga erisha olmadilar. Bunda xulosa

² Kim Xodong. Holy war in China. – California: Stanford University Press, Stanford, – 2004, B.28.

chiqargan rus hukumati bepayon qozoq dashtlarida ko'plab harbiy qal'alar va istehkomlar ko'rishga kirishdi. Natija XIX asr o'rtalariga kelib Qozog'iston hududlarida 60 ga yaqin harbiy va 100 dan ortiq kichikroq istehkomlar barpo etildi. Bu ishlarning hammasi kelgusida o'zbek xonliklariga qarshi kurashga puxta tayyorgarlik ko'rilganligini bildirar edi. Chor Rossiyasining xonlikarga qarshi harbiy yurishlardan dastlabkilaridan biri 1839 -yilda Xiva xonligiga qarshi Orenburg general gubernatori graf Pervoskiy tomonidan amalga oshirildi. 1839-yil 16- fevralda tasdiqlangan rejaga ko'ra Xivagacha bo'lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o'tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligiga duch keldi va 1045 kishi o'ldirildi, 609 kishi yarador bo'ldi. Harbiy yurish esa to'laligicha mag'lubiyatga uchradi. Keyingi yillarda ruslar xonliklar bilan chegaralarda kichik-kichik harbiy to'qnashuvlar bilan cheklangan bo'lsalarda, bu hududlarda o'z harbiy imkoniyatlarini kengaytirish va endi Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni maqsad qilib qo'ygan edilar. XIX asrning 50 - yillariga kelib Rossiya mohiyatiga ko'ra adolatsiz va bosqinchilik xususiyatiga ega bo'lgan mustamlakachilik yurishlarini Qo'qon xonligiga qarshi faollashtirib yubordi va xonlikka qarshi rosmama urush harakatlarini boshlab yubordi. Deyarli O'rta asrlarga xos qurollanishga ega bo'lgan Qo'qon xonligi zamonaviy quroyarog'larga ega bo'lgan va Yevropadagi urushlarda katta tajriba orttirgan dahshatli dushmanga qarshi urushga kirdi. Bu vaqtga kelib Qozog'iston hududlarini egallab olgan Rossiya imperiyasi harbiy qo'shinlari Qo'qon xonligi hududlariga ikki yo'nalishda Orenburg harbiy okrugi va G'arbiy Sibir harbiy okrugi tomonidan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. 1864-yilga kelib harbiy harakatlari yanada shiddatli tus oldi. Xonlikning ichkari hududlariga suqulib kirayotgan rus mustamlakachilari oldida Avliyoo ota, Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi qudratli harbiy kuchga va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar turardi. 1864-yil 1-may kuni Avliyootaga yetib kelgan polkovnik Chernyayev otryadlari shaharlarga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Vatan himoyachilarining qattiq qarshiligiga qaramay shu yilning 4-iyunida ruslar tomonidan bosib olindi. 4-iyulda Chinoz, 11-iyulda esa Manket bosib olindi³.

Xulosa. XIX asr o'rtalarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga qaratilgan bosqinchilik siyosati asosan iqtisodiy manfaatlar, ya'ni yangi bozorlar va xomashyo manbalarini egallash ehtiyoji bilan bog'liq edi. Bu jarayon Yevropadagi kapitalistik davlatlar o'rtasidagi raqobat, ayniqsa Rossiya va Angliya o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlar fonida yanada kuchaydi. Rossiya imperiyasi avvaldan puxta rejalashtirilgan siyosat asosida harakat qilib, O'rta Osiyo xonliklarining ichki zaifliklari - siyosiy parokandalik, o'zaro nizolar va harbiy jihatdan orqada qolgan holatidan ustalik bilan foydalandi. Qozoq hududlarida harbiy qal'alar va istehkomlar qurilishi, josuslik va

³ Rajabov A Sh. Mirbobol Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. – Farg'ona, 2023. – B.16-19.

ekspeditsiyalar orqali ma'lumot to'plash, shuningdek, iqtisodiy bosim vositalari imperiyaning keyingi harbiy yurishlari uchun mustahkam asos yaratdi. XIX asrning o'rtalariga kelib Rossiya imperiyasi Qozog'iston hududlarini deyarli to'liq nazoratga olib, O'rta Osiyoning ichki hududlariga bevosita kirib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shundan so'ng Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklariga qarshi harbiy yurishlar bosqichma-bosqich kuchaytirildi. Xususan, Avliyoota, Turkiston, Chimkent va Toshkent kabi strategik shaharlarning bosib olinishi bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. Umuman olganda, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi nafaqat harbiy-siyosiy jarayon, balki uzoq yillik strategik reja asosida amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatining natijasi edi. Bu jarayon xonliklarning mustaqilligini yo'qotishiga, mintaqaning siyosiy tuzilishi o'zgarishiga va mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ldashev Sh. "A'lam pochchaning Xitoydagi elchilik faoliyati". – Toshkent Islom Universitetining "Ilmiy tahliliy axborot" jurnali, 2017-yil 3-son, B.46.
2. Kim Xodong. "Holy war in China". Stanford University Press, Stanford, California – 2004, B.28.
3. Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona, 2023. – B.16-19.
4. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy orif qalbi va orif holining haqiqati to'g'risida. / Ilm sarchashmalari. 1-son. Urganch, 2023. B.62-65.
5. A.Sh.Rajabov. Mir bobo Naqshbandiyning «Mir'otus Solikiyn» asarida qalbning tavsifi. / BuxDPI Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari. Buxoro, 2022-yil, 25-aprel. – B.707-771.